



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	

BO'LAJAK PSIXOLOGLARDA ALTRUISTIK XULQ MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Nusratova Mexriniso Baxshilloevna

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari, omillari va mexanizmlari tahlil qilingan. Altruistik xulq insonning boshqalarga beg'araz yordam ko'rsatish, hamdardlik bildirish, ijtimoiy mas'uliyatni his etish hamda prosotsial faoliyatni amalga oshirishga yo'naltirilgan motivatsion tizim sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotda bo'lajak psixologlarning kasbiy shakllanish jarayonida altruistik qadriyatlar, empatiya, refleksiya, emotsional intellekt va ijtimoiy mas'uliyat hissining rivojlanishi ularning kasbiy samaradorligini oshiruvchi muhim omil ekanligi yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida psixologiya yo'nalishi talabalarida altruistik motivlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglar, psixologik mashg'ulotlar, volontyorlik faoliyati hamda interaktiv ta'lim texnologiyalarining ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalari bo'lajak psixologlarda insonparvarlik, hamkorlik va kasbiy etikaga asoslangan altruistik xulq motivlarini shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali psixologik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: altruistik xulq, altruizm, motivatsiya, bo'lajak psixolog, empatiya, prosotsial xulq, emotsional intellekt, refleksiya, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy mas'uliyat.

Abstract: This article examines the psychological opportunities, factors, and mechanisms for developing altruistic behavior motives among future psychologists. Altruistic behavior is considered a motivational system aimed at selfless assistance to others, empathy, social responsibility, and prosocial activity. The study highlights the importance of fostering altruistic values, emotional intelligence, empathy, reflection, and a sense of social responsibility during the professional training of psychology students.

Particular attention is paid to the psychological and pedagogical conditions that facilitate the development of altruistic motives within higher education institutions. The effectiveness of training programs, volunteer activities, interactive teaching methods, and practice-oriented educational technologies in promoting prosocial orientations among future psychologists is substantiated.

The findings indicate that the development of altruistic behavior motives enhances professional competence, ethical awareness, interpersonal communication skills, and readiness to provide effective psychological support. Strengthening altruistic tendencies among future psychologists contributes to the formation of a humanistic professional position and improves the quality of psychological services in diverse social contexts.

Key words: altruistic behavior, altruism, motivation, future psychologist, empathy, prosocial behavior, emotional intelligence, reflection, professional competence, social responsibility.



Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические возможности, факторы и механизмы развития мотивов альтруистического поведения у будущих психологов. Альтруистическое поведение анализируется как мотивационная система, направленная на бескорыстную помощь другим людям, проявление эмпатии, социальной ответственности и просоциальной активности.

Особое внимание уделяется формированию у студентов-психологов таких качеств, как эмпатия, рефлексия, эмоциональный интеллект, гуманистические ценности и готовность к оказанию психологической помощи. В статье раскрываются психолого-педагогические условия, способствующие развитию альтруистических мотивов в процессе профессиональной подготовки будущих психологов. Обосновывается эффективность использования тренингов, волонтерской деятельности, интерактивных методов обучения и практико-ориентированных технологий для формирования просоциальной направленности личности.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что развитие мотивов альтруистического поведения способствует повышению профессиональной компетентности будущих психологов, укреплению их нравственных качеств и готовности к эффективному взаимодействию с различными категориями клиентов в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: альтруистическое поведение, альтруизм, мотивация, будущий психолог, эмпатия, просоциальное поведение, эмоциональный интеллект, рефлексия, профессиональная компетентность, социальная ответственность.

KIRISH

Jahon miqyosida kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimiga, shaxslararo muloqot madaniyatiga hamda jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida individual manfaatlarning ustuvorlashuvi, raqobat muhitining kuchayishi, turli psixologik muammolarning ko'payishi insonlarda hamjihatlik, o'zaro yordam, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni rivojlantirish zaruratini yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Bunday sharoitda altruistik xulq motivlari shaxsning ijtimoiy faolligi, ma'naviy yetukligi va boshqalarga nisbatan mas'uliyatli munosabatini belgilovchi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Altruizm tushunchasi psixologiya, falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlarida keng tadqiq etilgan bo'lib, u shaxsning boshqalarning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yishi, ularga beg'araz yordam ko'rsatishga intilishi va ijtimoiy farovonlikka xizmat qiluvchi xatti-harakatlarni amalga oshirishi bilan tavsiflanadi. Psixologik nuqta nazardan altruistik xulq insonning ichki motivatsion tizimi, emotsional kechinmalari, qadriyatlar yo'nalishi va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Mazkur xulq shakli empatiya, rahmdillik, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy ong va refleksiv qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda psixolog kasbi vakillariga qo'yilayotgan talablar nafaqat yuqori darajadagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki insonparvarlik, samimiylik, hamdardlik va kasbiy fidoyilik kabi shaxsiy sifatlarni ham o'z ichiga oladi. Psixologning kasbiy faoliyati turli yoshdagi va turli ijtimoiy guruhlariga mansub insonlarning ruhiy holatini tushunish, ularga psixologik yordam ko'rsatish hamda murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o'tishda ko'maklashish bilan bog'liq. Shu sababli bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarining rivojlanganligi ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va psixologik yordam samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Psixologik tadqiqotlar natijalari altruistik xulqning shakllanishida biologik, ijtimoiy va psixologik omillar o'zaro uyg'un holda ishtirok etishini ko'rsatadi. Xususan, empatiya darajasining yuqoriligi, ijobiy ijtimoiy tajriba, ma'naviy qadriyatlar tizimining shakllanganligi hamda shaxsning prosotsial yo'nalganligi altruistik motivlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, individualizmning haddan tashqari kuchayishi, ijtimoiy begonalashuv, emotsional befarqlik va kommunikativ qiyinchiliklar altruistik xulqning namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak psixologlarni tayyorlash jarayoni nafaqat professional bilimlarni egallash, balki kasbiy jihatdan muhim bo'lgan shaxsiy sifatlarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, psixologiya yo'nalishi talabalarida empatiya, refleksiya, emotsional intellekt, tolerantlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantirish altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning muhim psixologik sharti hisoblanadi. Bunda trening mashg'ulotlari, psixologik amaliyotlar, volontyorlik faoliyati, guruhiy ishlanmalar va interaktiv ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda inson manfaatlarini ta'minlash, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda bo'lajak psixologlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularda yuksak insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish hamda altruistik motivlarni rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki psixologik xizmat samaradorligi ko'p jihatdan mutaxassisning insonlarga

nisbatan samimiy munosabati, yordam berishga tayyorligi va kasbiy faoliyatida altruistik qadriyatlarga amal qilishiga bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish, uning determinantlarini aniqlash hamda samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning tadqiq etilishi nafaqat bo'lajak psixologlarning kasbiy kompetentligini oshirishga, balki jamiyatda insonparvarlik va o'zaro yordam madaniyatining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida insonlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, psixologik xizmatlar sifatini oshirish hamda prosotsial xulq-atvorni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, empatiya, altruizm va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar psixologik yordam samaradorligini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Globallashtirish, axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy ziddiyatlar va stress omillarining ko'payishi sharoitida insonparvarlikka asoslangan kasbiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, ularni yuksak insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda psixologik xizmat tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ta'lim tizimida psixolog mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish, ularda kasbiy kompetentlik bilan bir qatorda altruistik motivlar, empatik munosabat va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish zarurati kuchaymoqda. Chunki psixolog faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan uning insonlarga beg'araz yordam ko'rsatishga bo'lgan ichki motivlari bilan belgilanadi.

Shu sababli bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini o'rganish, ushbu jarayonning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari psixolog kadrlarini tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy faoliyatida insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash va jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirish muammosi zamonaviy psixologiya fanida shaxsning prosotsial faolligi, empatiya, axloqiy rivojlanishi va kasbiy shakllanishi bilan bog'liq holda o'rganib kelinmoqda. Xorijiy olimlar altruizmning psixologik mexanizmlarini tahlil qilishda uning motivatsion, emosional va ijtimoiy determinantlariga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, A. Maslou inson ehtiyojlari iyerarxiyasi nazariyasida shaxsning o'zini o'zi ro'yobga chiqarishi jarayonida boshqalarga yordam berish va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga intilishi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. K. Rojers esa insonparvarlik psixologiyasi doirasida empatiya, samimiylik va shartsiz ijobiy qabul qilish kabi sifatlarni samarali psixologik yordamning asosiy shartlari sifatida ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak psixologlarda altruistik motivlarni shakllantirishning nazariy asoslarini yaratdi.

Altruistik xulqning emosional asoslarini o'rganishda M. Hoffman tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim empatiyani altruistik xatti-harakatlarning eng muhim psixologik manbai sifatida talqin qilib, insonning boshqalarning hissiy holatini tushunishi va his etishi yordam ko'rsatish motivlarini kuchaytirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. D. Batson tomonidan ilgari surilgan "empatiya–altruizm" gipotezasi ham altruistik xulqning shakllanishida hamdardlik hissining yetakchi rol o'ynashini ko'rsatadi. Uning fikricha, insonning boshqalar muammolariga nisbatan emosional yaqinligi altruistik harakatlarni yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biridir.

Rus psixologiya maktabi vakillari ham mazkur masalani shaxs rivojlanishi va faoliyat nazariyasi doirasida tadqiq etganlar. S.L. Rubinshteyn inson xulq-atvorining shakllanishida ijtimoiy munosabatlar va ichki motivlarning o'zaro bog'liqligini asoslab, altruistik faoliyatning manbai shaxsning ijtimoiy tajribasi bilan belgilanishini ko'rsatgan. A.N. Leontev motivatsiya nazariyasida inson faoliyatining mazmuni va yo'nalishini motivlar belgilashini ta'kidlab, ijtimoiy ahamiyatga ega motivlarning rivojlanishi shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichi ekanligini qayd etgan. B.G. Ananyev va L.I. Bojovich tadqiqotlarida esa shaxsning qadriyatlar tizimi, axloqiy ong va ijtimoiy yo'nalganlik darajasi altruistik xulqning rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar sifatida talqin qilingan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, altruistik xulq motivlari empatiya, emosional intellekt, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq bo'lajak psixologlarda aynan altruistik motivlarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllantirishning psixologik imkoniyatlari va amaliy mexanizmlarini kompleks o'rganish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois mazkur muammoni tadqiq etish psixolog mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirish hamda ularning insonparvarlikka asoslangan faoliyatini takomillashtirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalarining psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi. Tanlanma tarkibiga 2-4-bosqich talabalari kiritildi. Tadqiqot jarayonida respondentlarning altruistik motivlari, empatiya darajasi, ijtimoiy mas'uliyat hissi hamda prosotsial yo'nalganlik ko'rsatkichlari o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxs faoliyati nazariyasi, gumanistik psixologiya konsepsiyasi hamda prosotsial xulqning zamonaviy psixologik yondashuvlari tashkil etdi. Empirik ma'lumotlarni yig'ishda O'zbekiston amaliy psixologiya tajribasida keng qo'llanib kelinayotgan va psixometrik ko'rsatkichlari tasdiqlangan metodikalardan foydalanildi. Jumladan, altruistik yo'nalganlikni aniqlash uchun V.V. Boyko tomonidan ishlab chiqilgan "Empatik qobiliyatlar diagnostikasi" metodikasi, emotsional hamdardlik darajasini baholash uchun Mehrabian va Epsteinning "Empatiya shkalasi", shuningdek, shaxsning prosotsial motivlarini o'rganishda I.M. Yusupovning empatiya diagnostikasi metodikasi qo'llanildi. Ushbu metodikalar respublika oliy ta'lim muassasalari, psixologik markazlar va ilmiy tadqiqotlarda muntazam ravishda foydalanib kelinayotgan ishonchli psixodiagnostik vositalar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari IBM SPSS Statistics dasturining 26-versiyasi yordamida statistik jihatdan qayta ishlandi. Olingan ma'lumotlar bo'yicha deskriptiv statistika (o'rtacha qiymat, standart og'ish), foizli taqsimot hamda Pearson korrelyatsion tahlili amalga oshirildi. Statistik tahlil altruistik xulq motivlari bilan empatiya, ijtimoiy mas'uliyat va prosotsial yo'nalganlik o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash imkonini berdi.

1-jadval: Bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlari va unga bog'liq psixologik ko'rsatkichlarning SPSS dasturi asosidagi tavsifiy statistik tahlili (n=120)

No	Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat (M)	Standart og'ish (SD)	Minimal qiymat	Maksimal qiymat	Past daraja (%)	O'rta daraja (%)	Yuqori daraja (%)
1	Altruistik xulq motivlari	68,42	8,17	45	89	15,8	56,7	27,5
2	Empatiya darajasi	71,36	7,94	49	91	12,5	51,7	35,8
3	Ijtimoiy mas'uliyat hissi	73,18	7,26	54	92	10,8	49,2	40,0
4	Prosotsial yo'nalganlik	69,57	8,03	47	90	13,3	55,0	31,7
5	Emotsional intellekt	72,84	7,48	53	94	11,7	50,8	37,5
6	Refleksiv qobiliyat	67,95	8,56	44	88	16,7	54,1	29,2
7	Kommunikativ kompetentlik	74,21	6,89	56	93	9,2	50,0	40,8
8	Kasbiy motivatsiya	76,47	7,12	55	95	8,3	47,5	44,2

Jadval natijalari bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarining o'rtacha darajada rivojlanganligini (M = 68,42) ko'rsatdi. Shu bilan birga, empatiya (M = 71,36), ijtimoiy mas'uliyat hissi (M = 73,18) va emotsional intellekt (M = 72,84) ko'rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi altruistik motivlarning shakllanishida ushbu omillarning muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Ayniqsa, kommunikativ kompetentlik (M = 74,21) hamda kasbiy motivatsiya (M = 76,47) natijalarining yuqori bo'lishi bo'lajak psixologlarning kasbiy faoliyatga ijobiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Statistik tahlil davomida altruistik xulq motivlari bilan empatiya ($r = 0,68$; $p < 0,01$), ijtimoiy mas'uliyat ($r = 0,71$; $p < 0,01$) va prosotsial yo'nalganlik ($r = 0,65$; $p < 0,01$) o'rtasida ijobiy va ishonchli bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Mazkur natijalar bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishda empatik qobiliyatlarni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytirish hamda prosotsial faoliyatga jalb etish muhim psixologik omillar ekanligini ko'rsatadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida altruistik qadriyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar, volontyorlik faoliyati va amaliy psixologik mashg'ulotlardan tizimli foydalanish bo'lajak psixologlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashning samarali vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlari shakllanishi murakkab va ko'p omilli psixologik jarayon ekanligini ko'rsatadi. Olingan empirik ma'lumotlar altruistik motivlar darajasi empatiya, ijtimoiy mas'uliyat, emotsional intellekt va prosotsial yo'nalganlik bilan bevosita bog'liqligini tasdiqladi. Bu holat shuni

anglatadiki, shaxsning boshqalarga nisbatan ijobiy emotsional munosabati va ularning ichki kechinmalarini tushuna olishi altruistik xulqning asosiy psixologik manbalaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, empatiya darajasi yuqori bo'lgan talabalarda altruistik xulq motivlari ham nisbatan kuchli rivojlangan. Bu natija M. Hoffman va D. Batson tomonidan ilgari surilgan empatiya-altruizm nazariyalariga mos keladi, ya'ni boshqalarning hissiy holatini chuqur his etish yordam ko'rsatishga bo'lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi. Shuningdek, ijtimoiy mas'uliyat hissining yuqoriligi bo'lajak psixologlarning jamiyat va mijoz oldidagi professional burchini chuqur anglashini ko'rsatadi, bu esa ularning kasbiy faoliyatida altruistik yondashuvni mustahkamlaydi.

Emotsional intellekt va kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichlarining yuqori darajasi ham altruistik xulqning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Chunki psixolog kasbi doimiy ravishda insonlar bilan bevosita muloqotni talab qiladi va bu jarayonda hissiyotlarni boshqarish, tushunish hamda to'g'ri reaksiya bildirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, yuqori emotsional intellekt altruistik motivlarni faollashtiruvchi muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kasbiy motivatsiya darajasining yuqoriligi bo'lajak psixologlarda insonlarga yordam berishga yo'naltirilgan ichki ehtiyoj shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatida altruistik xulqning barqaror namoyon bo'lishi uchun asos yaratadi. Biroq ayrim talabalarda altruistik motivlarning o'rtacha yoki past darajada ekanligi ushbu yo'nalishda maxsus psixologik treninglar, reflektiv mashg'ulotlar va volontyorlik faoliyatini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar altruistik xulq motivlarini rivojlantirish jarayoni ta'lim muhiti, shaxsiy tajriba va emotsional-intellektual rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu sababli bo'lajak psixologlarni tayyorlash jarayonida empatiya va prosotsial xulqni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni joriy etish ularning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot bo'lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlandi. Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar altruistik motivlar shaxsning ichki qadriyatlar tizimi, emotsional-intellektual rivojlanishi hamda ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, empatiya, ijtimoiy mas'uliyat hissi, emotsional intellekt va prosotsial yo'nalganlik kabi psixologik omillar altruistik xulqning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynashi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak psixologlar orasida altruistik motivlar o'rtacha darajada rivojlangan bo'lib, ularni yanada mustahkamlash uchun maxsus psixologik-pedagogik sharoitlar zarur hisoblanadi. Jumladan, trening mashg'ulotlari, reflektiv amaliyotlar, guruhiy psixologik ishlar hamda volontyorlik faoliyati talabalar shaxsida altruistik yo'nalganlikni kuchaytirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, empirik natijalar altruistik xulq motivlari bilan empatiya va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasida ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bu esa psixolog kadrlarni tayyorlash jarayonida nafaqat kasbiy bilimlarni, balki insonparvarlikka asoslangan shaxsiy sifatlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, altruistik xulq motivlarini rivojlantirish bo'lajak psixologlarning kasbiy kompetentligini oshirish, ularning mijozlar bilan samarali ishlash qobiliyatini kuchaytirish hamda jamiyatda psixologik yordam sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim tizimida ushbu yo'nalishga qaratilgan ilmiy asoslangan dasturlarni takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maslow A. H. Motivation and Personality. - New York: Harper & Row, 1970. - 411 p.
2. Rogers C. R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. - Boston: Houghton Mifflin, 1961. - 420 p.
3. Batson C. D. Altruism in Humans. - New York: Oxford University Press, 2011. - 336 p.
4. Hoffman M. L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. - Cambridge: Cambridge University Press, 2000. - 331 p.
5. Eisenberg N., Spinrad T. L. Prosocial Development // Handbook of Child Psychology and Developmental Science. - New York: Wiley, 2015. - P. 610-656.
6. Rubinstein S. L. Bytie i soznanie. - Moskva: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR, 1957. - 328 s.
7. Leontiev A. N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. - Moskva: Politizdat, 1975. - 304 s.
8. Ananyev B. G. Chelovek kak predmet poznaniya. - Leningrad: Leningrad University Press, 1968. - 339 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.